

**«O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI» AJ  
yagona aksiyadorining  
2016 yil “30” sentyabrdagi  
10 – sonli Qarori bilan  
“TASDIQLANGAN”**

**«O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI» Aksiyadorlik jamiyatining  
YAGONA AKSIYADOR TO‘G‘RISIDAGI NIZOMI**

**Toshkent 2016 yil.**

## **1. UMUMIY QOIDALAR**

1. Ushbu nizom «O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI» aksiyadorlik jamiyatining yagona aksiyador reglamenti, maqomini, uning ishi, o'tkazilishi tartibi va u tomonidan qarorlar qabul qilinishini belgilab beradi.

2. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun(bundan keyin matnda - Qonun), boshqa me'yoriy-normativ hujjatlar, Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqarish tizimini takomillashtirish komissiyasining 2015 yil 31 dekabrdagi №9-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqarish kodeksiga asosan ishlab chiqilgan.

3. Jamiyatning barcha oddiy aksiyalarining egasi vakolatli davlat organi - hisoblanadi.

4. Jamiyat aksiyadorlari umumiyligi yig'ilishining vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha qarorlarni Jamiyatning yagona aksiyadori (davlat ishonchli vakili) faqatgina vakolatli davlat organi bilan tuzilgan ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida qabul qiladi va yozma ravishda rasmiylashtiriladi.

5. Jamiyatning yagona aksiyadori o'z vakolatlarini lavozimga tayinlanganligi to'g'risidagi huquqiy hujjat va shaxsni tasdiqlovchi hujjat asosida amalga oshiradi.

6. Jamiyat yagona aksiyadori xar yili yig'ilish o'tkazishga majburdir, ammo moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi.

7. Jamiyat yagona aksiyadorining yillik umumiyligi yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiyligi yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

## **2. JAMIYAT YAGONA AKSIYADORINING VAKOLATLARI**

Jamiyat yagona aksiyadori vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;
- Jamiyatni qayta tashkil etish;
- Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash,
- o'rnatilgan tartibda tayinlanganidan keyin Jamiyat nomidan Jamiyat Boshqaruvi raisi va a'zolari bilan mehnat shartnomalarini tuzish;
- qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar) va emissiya risolasini chiqarish to'g'risidagi qarorni tasdiqlash;
- qimmatli qog'ozlarni (aksiyalarni, obligatsiyalarni) chiqarish to'g'risidagi qarorga va emissiya risolasiga o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish va ularning matnini tasdiqlash;

- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- Jamiyat o'z aksiyalarini olish;
- Jamiyat aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;
- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
  - Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayrboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
  - Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;
  - imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida ushbu O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 35-moddasida nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;
  - Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;
  - Jamiyat taftish komissiyasining a'zolarini (taftishchisini) saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish,
  - "Taftish komissiyasi", "Dividend siyosati", "Ichki nazorat" va "manfaatlar qarama qarshiligi" to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlash;
  - Jamiyat taftish komissiyasining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioxal etilishi yuzasidan jamiyat taftish komissiyasining xulosalarini eshitish;
  - belgilangan tartibda tayinlanganidan keyin Jamiyat nomidan Jamiyatning ichki audit xizmati xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzish;
  - Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlarining ma'ruba (hisobot) shakli va mazmuniga talablarni belgilash;
  - Jamiyatning yillik hisobotini va yillik biznes-rejasini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'naliishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddat (besh yil)ga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;
  - biznes-jarayonlar va loyihalarning jamiyatni rivojlantirish maqsadlariga mosligi haqida mustaqil professional tashkilotlar – maslahatchilarni jalb etgan holda har yillik tahlillarni o'tkazish haqida qaror qabul qilish va tahlil natijalarini eshitish;
  - majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnomani tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

- Qonunning 84-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlarida hamda 88-moddasi beshinchi qismida ko'rsatilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

- dividendlar miqdori, shakli va to'lash tartibi to'g'risida qarorlar qabul qilish;

-Jamiyat boshqaruviga to'lanadigan haq va (yoki) tovoni, shuningdek ularning maksimal miqdorini belgilash;

- Jamiyatning Korporativ boshqaruva kodeksining tavsiyalariga amal qilish majburiyati va xabar shaklini tasdiqlash to'g'risidagi qaror qabul qilish;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi va jamiyat ustaviga muvofiq boshqa masalalarni hal qilish.

8. Jamiyat yagona aksiyadori vakolat doirasiga kiritilgan masalalar jamiyatning ijroiya organi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

9. Jamiyat Kengashining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

10. Jamiyatning ijro etuvchi organi (Boshqaruvi) a'zolari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi.

11. Jamiyatning yagona aksiyadorining yig'ilishida auditni o'tkazgan auditorlik tashkilotining vakili, ichki audit xizmati xodimlari, Kengash a'zolari, taftish komissiyasi va Jamiyatning ijro etuvchi organi ishtirok etishga haqidir. Jamiyatning Boshqaruvi va Taftish komissiyasining vakillari, shuningdek auditorlik tashkiloti vakillari, jamiyatning yagona aksiyadorining yillik yig'ilishida o'z organlarining hisobotlari bilan shaxsan ishtirok etishlari shart.

### **3.JAMIYAT YAGONA AKSIYADORINING UMUMIY YIG'ILISHI**

12.Jamiyatning yagona aksiyadorini yig'ilishni sifatli o'tkazish va ushbu Qoidalarning 6-bandida ko'rsatilgan muddatda o'tkazish uchun ijroiya organi:

- auditorlik tashkilotlari bilan shartnomani tuzadi, Jamiyatning yagona aksiyadorining qarori bilan auditorlik tekshiruvini o'tkazish, shu jumladan moliyaviy hisobotni Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tayyorlash, shartnomada auditorlik tekshiruvini o'tkazishning aniq muddatlari ko'rsatiladi.

- Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan so'ng Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tayyorlangan yillik moliyaviy hisobotlarning nashr etilishini ta'minlaydi.

Jamiyatning ijro etuvchi organi shuningdek ishlab chiqadi (tayyorlaydi):

- sof foydani taqsimlash (zararni qoplash) bo'yicha loyihalar, har bir soha uchun asoslash va yagona aksiyadorlar yig'ilishida ko'rib chiqiladigan boshqa hujjalalar;

- Jamiatning Taftish komissiyasiga ko'rsatilgan nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar va hk.;

- Jamiatning yillik hisoboti va yillik biznes-rejasi, shuningdek Jamiatning asosiy yo'naliishlari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda uning aniq shartlarini belgilash bilan o'rta va uzoq muddatli istiqbolda jamiat rivojlantirish strategiyasi loyihasi;

- ijro etuvchi organning biznes-reja parametrlarining bajarilishi va jamiatning rivojlanish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilgan choralar to'g'risidagi hisoboti;

- audit o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini tanlash uchun tender o'tkazadi.

13. Yagona aksiyadorning yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rileyotganda taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotga (materialarga) jamiatning yillik hisoboti, jamiatning yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan jamiat taftish komissiyasining (taftishchisining) va auditorlik tashkilotining xulosasi, jamiatning ustaviga kiritiladigan o'zgartish va qo'shimchalar loyihasi yoki jamiatning yangi tahrirdagi ustavi loyihasi shuningdek, jamiat o'rta va uzoq muddatli strategiyalari kiradi.

14. Jamiat yagona aksiyadorining yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rileyotganda taqdim etilishi majburiy bo'lgan qo'shimcha axborotning (materialarning) ro'yxati qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanishi mumkin.

15. Jamiat yagona aksiyadori yig'ilishining kun tartibidagi masalalar yozma ravishda asoslangan tartibda kiritiladi.

Jamiat yagona aksiyadorining yillik umumiyligi yig'ilishi kun tartibiga quyidagi masalalarni ko'rib chiqishi va ular yuzasidan qarorlar qabul qilishlari uchun Jamiatning ijro etuvchi organi va taftish komissiyasi qaror qabul qilingan kundan kamida yetti kalendar kun oldin Jamiatning yagona aksiyadoriga quyidagi hujjalalar va ma'lumotlarni taqdim etadi:

- Jamiat ijro etuvchi organining hisobot yilidagi jamiat faoliyatining yakunlari va jamiatning yillik biznes-rejasini bajarish natijalari to'g'risidagi hisoboti;

- Jamiat Taftish komissiyasining o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha hisoboti va Taftish komissiyasining hisobot yilidagi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish to'g'risidagi xulosasi;

- Jamiatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish bo'yicha auditorlik tashkilotining xulosasi;

- Jamiyatning yillik hisoboti, shu bilan birga Jamiyatning yagona aksiyadoriga tasdiqlash uchun taqdim etilgan jamiyatning moliyaviy hisobotidagi ma'lumotlarning ishonchliligi jamiyatga yoki jamiyatning yagona aksiyadoriga mulkiy manfaatlar bilan bog'liq bo'lmannan auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlanishi kerak;
- foydani taqsimlash bo'yicha takliflar;
- Jamiyat Boshqaruvi a'zolari to'g'risida ma'lumot;
- Jamiyatning taftish komissiyasi a'zoligiga nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- Jamiyatning taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiya miqdori bo'yicha Kengash tavsiyalari;
- Jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyat ustavining yangi tahririni loyihasini qiritiladi.

#### **4. JAMIYAT YAGONA AKSIYADORNING NAVBATDAN TASHQARI YIG'ILISHI**

17. Jamiyatning yagona aksiyadorining navbatdan tashqari yig'ilishi quyidagi sabablarga asosan o'tkaziladi:

- shaxsiy tashabbusiga asosan;
- Jamiyat kengashining qaroriga asosan
- taftish komissiyasi yozma talabiga binoan;
- Jamiyat ijroiya organining yozma talabiga asosan.

18. Jamiyatning yagona aksiyadorining navbatdan tashqari yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talabnomada yig'ilish kun tartibiga kiritilishi kerak bo'lgan masalalar kiritilishi kerak.

19. Jamiyatning yagona aksiyadorining navbatdan tashqari yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi arizaga Jamiyatning yagona aksiyadorining navbatdan tashqari yig'ilishini chaqirishni talab qiladigan shaxs tomonidan imzolanadi.

20. Jamiyatning Kengashi, taftish komissiyasi va ijroiya organi navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishi chaqiruvchi haqidagi talabini taqdim etishidan boshlab 10 kun ichida jamiyatning kengashi tomonidan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishi chaqirilishi yoki uni chaqirilishini rad etish haqida qaror qabul qilinishi kerak.

21. Jamiyat kengashining yagona aksiyadorning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirish yoki uni chaqirilishini asosli ravishda rad etish borasidagi qarori qabul qilinganidan so'ng uch ishchi kunidan kechiktirmasdan yagona yig'ilish chaqirilishini talab qilgan shaxslarga jo'natiladi.

22. Agar Jamiyatning yagona aksiyadori o‘z vakolati bilan bog‘liq masalalarni favqulodda ko‘rib chiqish o‘z tashabbusi bilan amalga oshirilsa, Jamiyat yagona aksiyadori ko‘rib chiqish uchun taqdim etilgan masalalar ro‘yxatini tuzadi, Jamiyat Kengash va ijo etuvchi organiga kun, vaqt, ko‘rib chiqish joyi va qaror qabul qilish to‘g‘risida xabar beradi. ushbu masalalar, shuningdek tegishli ma‘lumotlar (materiallar) va hujjatlarni tayyorlaydi.

23. Kengash, Taftish komissiyasi, Jamiyatning ijo etuvchi organi Jamiyatning yagona aksiyadori tomonidan qaror qabul qilingan kundan kamida yetti kalendar kun oldin unga ko‘rib chiqilayotgan masalalar bo‘yicha barcha zarur ma‘lumotlarni (materialarni) va hujjatlarni taqdim etadi.

24. Jamiyatning Boshqaruvi Jamiyatning taftish komissiyasining talabiga binoan chaqirladigan Jamiyatning yagona aksiyadorlari yig‘ilishining kun tartibidagi masalalar tarkibiga o‘zgartirish kiritish huquqiga ega emas.

## **5. JAMIYAT YAGONA AKSIYADORINING QARORI**

25. Quyidagi masalalar bo‘yicha qarorlar Jamiyatning yagona aksiyadori tomonidan Jamiyatning Kengashi tavsiyasiga binoan qabul qilinadi:

- Jamiyatning foydlari va zararini taqsimlash, shu jumladan dividendlarni to‘lash hajmi, shakli va tartibi to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- Jamiyat Taftish komissiyasi a’zolariga to‘lanadigan haq va kompensatsiya miqdorini aniqlash.

26. Dividendlarni to‘lash, miqdori, shakli va to‘lash to‘g‘risidagi qaror Jvmiyatning yagona aksiyadori moliyaviy hisobot asosida, agar uning ishonchliligi to‘g‘risida tashqi auditorlik xulosasi bo‘lsa, qabul qilinadi.

27. Jamiyatning yagona aksiyadori oddiy aksiyalar bo‘yicha dividendlarni to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli.

28. Dividendlarni to‘lash to‘g‘risidagi qarorda dividendlarni to‘lash boshlanishi va tugashi sanasi ko‘rsatiladi.

29. Jamiyatning yagona aksiyadori tomonidan qabul qilingan qarorlar yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

30. Jamiyatning yagona aksiyadorining qarorida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- qaror qabul qilingan sana, vaqt va joy;
- taklif etilgan shaxslar
- Jamiyatning yagona aksiyadoriga ko‘rib chiqish uchun taqdim etilgan masalalar ro‘yxati;
- qabul qilingan qarorlar.

31. Jamiyat yagona aksiyadorining qarori ikki nusxada qabul qilinganidan keyin o'n kundan kechiktirmay rasmiylashtiriladi. Qaror Jamiatning yagona aksiyadori yoki uning vakolatli shaxsi tomonidan imzolanadi.

32. Jamiatning yagona aksiyadori tomonidan qabul qilingan qarorlar ijro etilishi imzolangan kuni jamiatning ijro etuvchi organiga yuboriladi.

33. Jamiatning yagona aksiyadori tomonidan qabul qilingan qarorlar ijro etilgandan so'ng, saqlash uchun Jamiatning arxiviga topshiriladi.

34. Jamiatning yagona aksiyadori qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyat faoliyati to'g'risidagi hujjatlar bilan tanishish huquqiga ega.

35. Jamiatning yagona aksiyadori yig'ilishining kotibi Jamiat aksiyadorlari bilan korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig'i yoki boshqa tayinlangan rahbar bo'lishi mumkin.

36. Jamiat yagona aksiyadori yig'ilishining kotibi:

yig'ilishning bayonnomasini yuritadi;

yozma arizalar bo'yicha yig'ilish kun tartibidagi masalalarni muhokamasini hisobini yuritadi;

Jamiatning yagona aksiyadori yig'ilishining bayonnomasi ushbu yig'ilish tamom bo'lganida keyin o'n kundan kechiktirmay ikki nusxada rasmiylashtiriladi.

37. Jamiat yagona aksiyadori yig'ilishining bayonnomasida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

yagona aksiyadorning yig'ilishi o'tkaziladigan sana, joy va vaqt;

nutqlarning assosiy qoidalari, yagona aksiyador tomonidan ko'tarilgan masalalar;

audio va video yozuvlar va yig'ilish Internetda translyatsiya qilingan taqdirda, bu ma'lumotlar ham ko'rsatiladi.

38. Jamiatning yagona aksiyadorlari yig'ilishi bayonnomasining ikkala nusxasi ham Jamiatning yagona aksiyadori va yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

## **6. YAGONA AKSIYADORNING QARORINI BAJARILISHI**

39. Jamiat yagona aksiyadori tomonidan qaror qabul qilingan kundan boshlab ikki ish kuni ichida u to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinadi va bayonnomasi, muhim fakt oshkor qilinishi kerak.

40. Jamiat tegishli ma'lumotlarni fond birjasining rasmiy veb-saytida e'lon qilishi kerak.

41. Jamiat yagona aksiyadori tomonidan qabul qilingan qarolarning bajarilishini nazorat qilish Kengash va Jamiatning ijro etuvchi organi tomonidan amalga oshiriladi.

## **7. YAKUNIY QOIDALAR**

42. Ushbu Nizom amaldagi qonun hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar yoki jamiatning ustaviga kiritilgan o'zgartishlar va/yoki qo'shimchalar asosida o'zgartirilishi va/yoki to'ldirilishi mumkin.

43. O'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar, agar ushbu qarorda aniq sana ko'rsatilmagan bo'lsa, Jamiat yagona aksiyadorining qarori bilan tasdiqlanganidan keyin kuchga kiradi.